XALQ DEPUTATLARI JONDOR TUMANI KENGASHINING QARORI

2021 - yil 30 - dekabr VI-48-71-2-35-K/21 Jondor tuman hokimligi

Jondor tumani mahalliy byudjetining 2022 yilgi asosiy ko‘rsatkichlarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2021 yil 30 dekabrdagi “2022 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-742-son Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksiga muvofiq 2022 yilda Jondor tumani mahalliy byudjetining daromadlari va xarajatlarini, shu jumladan hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilariga parlament ajratmalarining cheklangan miqdorlarini belgilash hamda byudjetlararo munosabatlarni tartibga solish maqsadida, xalq deputatlari Jondor tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksiga muvofiq 2022 yilgi Jondor tumani mahalliy byudjetining daromadlari 177 mlrd 553 mln 99 ming so‘m va xarajatlari 177 mlrd 553 mln 99 ming so‘m miqdorida belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman mahalliy byudjeti daromadlarining 2022 yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Mahalla fuqarolar yig‘inlarining iqtisodiy salohiyati va rivojlanishiga qarab, 2022 yilda yuridik va jismoniy shaxslar uchun belgilangan er solig‘i bazaviy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffisientlar miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Jondor tumani byudjetidan 2022 yilgi hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Jondor tumani byudjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yorlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin. Bunda, ajratma me’yorlari bo‘yicha respublika, viloyat mahalliy byudjeti bilan tuman mahalliy byudjetining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda viloyat g‘aznachilik bo‘linmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

6. 2022 yil uchun Jondor tumani byudjeti daromadlari va xarajatlarining chegaraviy hajmi 5-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. Jondor tumaniga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, Qonun bilan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini viloyatlarning viloyat byudjetlari daromadlari prognozining ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

8. 2022 yil uchun tuman mahalliy byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari 1 mlrd 659 mln 202 ming

so‘m miqdorida belgilansin.

Jondor tumani mahalliy byudjetining zaxira jamg‘armasi byudjet umumiy xarajatlarining 1 foizidan kam bo‘lmagan miqdorlarda shakllantiriladi. Tuman byudjetida ko‘zda tutilmagan, kechiktirib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlar moliyalashtiriladi.

9. 2022 yil uchun tuman byudjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar 1 mlrd 292 mln so‘m miqdorda 7-ilovaga muvofiq belgilansin.

10. Tuman hokimligi, choraklar yakuni bo‘yicha daromadlarning prognoz ko‘rsatkichlari hokimlikning faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan holda 5 foizdan ortiq miqdorga bajarilmasa va moliya yili oxirigacha ushbu mablag‘larning tushish ehtimoli bo‘lmasa, viloyat hokimligiga kiritiladigan murojaatida xarajatlarni maqbullashtirish yuzasidan takliflar bilan birga tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini oshirish yuzasidan takliflarini kiritadi.

11. Tuman hokimligi tashabbusi bilan amalga oshiriladigan tadbirlar uchun talab etiladigan mablag‘lar mahalliy byudjetning ijrosi davomida shakllangan qo‘shimcha manba hisobidan amalga oshirilishi qat’iy belgilab qo‘yilsin.

12. Tuman hokimligi:

byudjetni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirsin;

har chorak yakuni bilan keyingi chorak birinchi oyining 25-sanasiga qadar rasmiy veb-saytlarga o‘z tasarrufidagi byudjet tashkilotlari kesimida mablag‘lar taqsimotini, moliyaviy hisobotlarni, kapital qo‘yilmalar hisobidan amalga oshirilayotgan loyihalarning ijrosini, o‘tkazilgan tanlov (tender) savdolari va davlat xaridlari hamda boshqa tegishli ma’lumotlarni joylashtirsin;

mahalliy byudjetning qo‘shimcha daromadlarini 30 foizidan kam bo‘lmagan miqdorlarda jamoatchilik fikri asosida belgilangan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirishni, rasmiy veb-saytiga ularning natijalarini joylashtirsin.

13. Tuman hokimligi tegishli ravishda hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilarining byudjet mablag‘laridan samarali foydalanilishi hamda erishilgan natijalar bo‘yicha hisobotlarni har chorak yakuni bilan xalq deputatlari tuman Kengashiga kiritilishini ta’minlasin.

14. Tuman hokimligi, budjet daromadlari va xarajatlarining ko‘rsatkichlarini bajarilishini ta’minlash, soliq bazasini kengaytirish hamda iqtisodiy salohiyatini oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko‘rish, budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanilishi ustidan qat’iy nazoratni o‘rnatilishini ta’minlasin va har chorak yakuni bilan Xalq deputatlari tuman Kengashi muhokamasiga kiritsin.

15. Tuman hokimligi qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

16. Mazkur qaror “Jondor ovozi” gazetasida e’lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

17. Ushbu qaror 2022 yil 1 yanvardan kuchga kiradi.

18. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi va tuman hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

Kengash Raisi **S.Hikmatov**

Халқ депутатлари Жондор туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-48-71-2-35-K/21-сон қарорига
1-илова

Jondor tumani mahalliy byudjeti daromadlarining 2022 yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/r	**Daromad turlari**	**Jami**
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	
2	Yagona soliq to‘lovidan Davlat byudjetiga ajratmalar	11 036 000,0
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	9 091 000,0
4	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	
5	Aksiz solig‘i, jami	
	shu jumladan:	
	- benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq	
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	
7	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	5 390 000,0
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan er soliq	9 459 000,0
10	Er qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (noruda materiallari)	238 000,0
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	5 103 000,0
12	Davlat boji	
13	Jarimalar	
14	Ijara to‘lovi	165 000,0
15	Davlat tashkilotlarining sof foydasidan daromad	
16	Yig‘imlar	6 215 000,0
JAMI		**46 697 000,0**
17	Mobil aloqa xizmati va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i tushumlaridan tegishli ravishda o‘tkazib beriladigan daromad	28 620 568,0
	Alkogolga aksiz solig‘i, shu jumladan pivo	10 831 388,0
	Mobil aloqaga aksiz solig‘i	6 170 203,0
	Tamaki maxsuloti uchun aksiz solig‘i	11 618 977,0
18	Tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar	102 235 531,0
HAMMASI		**177 553 099,0**

Халқ депутатлари Жондор туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-48-71-2-35-K/21-сон қарорига
2-илова

Jondor tumanidagi mahalla fuqarolar yig‘inlari bo‘yicha yuridik va jismoniy shaxslar uchun belgilangan yer solig‘i bazaviy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar

MFY nomi	**Yuridik shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlari uchun yer soligi stavkasi**		**Jismoniy shaxslar uchun yer solig‘i stavkasi**	
	Koeffitsent miqdori	**Soliq summasi (1 gektar uchun, so‘mda)**	**Koeffitsent miqdori**	**Soliq summasi (1 kv.m uchun, so‘mda)**
Aleli MFY	1,05	30 450 000,0	1,12	292,00
Bahoriston MFY	0,95	27 550 000,0	1,02	264,00
Boliob MFY	1,00	29 000 000,0	1,07	278,00
Dalmun MFY	1,05	30 450 000,0	1,12	292,00
Darveshi MFY	1,05	30 450 000,0	1,12	292,00
Demun MFY	1,00	29 000 000,0	1,07	278,00
Denov MFY	0,95	27 550 000,0	1,02	264,00
Dovut MFY	0,95	27 550 000,0	1,02	264,00
YOsh kuch MFY	0,95	27 550 000,0	1,02	264,00
Jamiyat MFY	0,95	27 550 000,0	1,02	264,00
Jondor MFY	1,15	33 350 000,0	1,23	320,00
Zangi MFY	0,95	27 550 000,0	1,02	264,00
Zarafshon MFY	1,15	33 350 000,0	1,23	320,00
Ibn Sino MFY	0,90	26 100 000,0	0,96	250,00
Qazoqon MFY	0,95	27 550 000,0	1,02	264,00
Qalmoq MFY	0,90	26 100 000,0	0,96	250,00
Qaravul MFY	1,00	29 000 000,0	1,07	278,00
Qaroli MFY	1,00	29 000 000,0	1,07	278,00
Qovchin MFY	0,95	27 550 000,0	1,02	264,00

Qozikenti MFY	1,00	29 000 000,0	1,07	278,00
Ko‘liyon MFY	1,00	29 000 000,0	1,07	278,00
Luqmon MFY	0,90	26 100 000,0	0,96	250,00
Mirzayon MFY	0,95	27 550 000,0	1,02	264,00
Murgak MFY	0,90	26 100 000,0	0,96	250,00
Mustaqillik MFY	1,00	29 000 000,0	1,07	278,00
Navgadi MFY	1,15	33 350 000,0	1,23	320,00
Namgoni MFY	0,95	27 550 000,0	1,02	264,00
Nurafshon MFY	0,90	26 100 000,0	0,96	250,00
Obod MFY	1,00	29 000 000,0	1,07	278,00
Oydin MFY	1,05	30 450 000,0	1,12	292,00
Oytug‘di MFY	1,05	30 450 000,0	1,12	292,00
Oqtepa MFY	1,00	29 000 000,0	1,07	278,00
Oxshix MFY	1,00	29 000 000,0	1,07	278,00
Pasana MFY	1,00	29 000 000,0	1,07	278,00
Pahlavon MFY	1,00	29 000 000,0	1,07	278,00
Paxtakor MFY	1,15	33 350 000,0	1,23	320,00
Pochchoyi MFY	1,00	29 000 000,0	1,07	278,00
Po‘loti MFY	1,05	30 450 000,0	1,12	292,00
Rabot MFY	1,00	29 000 000,0	1,07	278,00
Romish MFY	1,00	29 000 000,0	1,07	278,00
Samonchuq MFY	1,00	29 000 000,0	1,07	278,00
Tinchlik MFY	1,15	33 350 000,0	1,23	320,00
Tobagar MFY	1,00	29 000 000,0	1,07	278,00
Ushot MFY	1,00	29 000 000,0	1,07	278,00
Hazorman MFY	1,00	29 000 000,0	1,07	278,00
Xo‘jaxayron MFY	1,00	29 000 000,0	1,07	278,00
Xumdonak MFY	1,05	30 450 000,0	1,12	292,00

Xumin MFY	1,00	29 000 000,0	1,07	278,00
Chorzona MFY	0,90	26 100 000,0	0,96	250,00
Shurobod MFY	1,05	30 450 000,0	1,12	292,00
Eronshox MFY	1,00	29 000 000,0	1,07	278,00
Yangiobod MFY	0,95	27 550 000,0	1,02	264,00

Халқ депутатлари Жондор туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-48-71-2-35-K/21-сон қарорига
3-илова

2022 yil uchun Jondor tumani byudjetidan hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan parlament ajratmalarining cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

T/r	**Ko‘rsatkichlar**	**miqdori**
Jondor tuman bo‘yicha xarajatlari miqdori, Jami		**177 553 099,0**
1.	Tuman xalq ta’limi bo‘limi	8 210 559,0
2.	Tuman maktabgacha ta’lim bo‘limi	9 226 119,0
3.	Tuman tibbiyot birlashmasi	68 393 543,0
4.	Tuman madaniyat bo‘limi	1 411 568,0
5.	Tuman turizm va sport bo‘limi	5 000 902,0
6.	Tuman bandlikka ko‘maklashish markazi	462 666,0
7.	Tuman hokimligi	61 385 542,0
8.	Fermerlar kengashi huzuridagi buxgalteriya markazi	875 067,0
9.	Tuman veterinariya bo‘limi	1 401 154,0
10.	Tuman hokimligi moliya bo‘limi	989 263,0
11.	Pensiya jamg‘armasining hududiy bo‘limi	0,0
12.	Tuman irrigatsiya bo‘limi	1 439 799,0
13.	Tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi	575 697,0
14.	Tuman mahalla va oilani qo‘llab-quvatlash bo‘limi	5 283 785,0
15.	Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar bo‘limi	462 767,0
16.	Tuman obodonlashtirish boshqarmasi	12 434 668,0

Халқ депутатлари Жондор туман Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-48-71-2-35-K/21-сон қарорига
4-илова

Umumdavlat soliqlaridan Jondor tumani mahalliy byudjetiga 2022 yildagi ajratmalari me’yorlari

T/R	SHaxar va tumanlar nomi	YUridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	Aylanmadan olinadigan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	YAkka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	YAkuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	YUridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	YUridik shaxslar er solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan er solig‘i
1	Jondor tumani	0	100	20	100	0	0	100	0	100

T/R	SHaxar va tumanlar nomi	Er qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (noruda materiallari)	Aksiz solig‘i	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Davlat boji	Jarimalar	Yig‘imlar	Davlat unitar korxonalarining sof foydasidan ajratma	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari
1	Jondor tumani	100	0	100	0	0	100	0	100

Халқ депутатлари Жондор туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-48-71-2-35-K/21-сон қарорига
5-илова

Jondor tumani mahalliy byudjetining 2022 yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

ming so‘mda

Byudjetlar nomi	**Daromad ***	**Xarajat**
Jondor tumani	75 317 568,0	177 553 099,0

Халқ депутатлари Жондор туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-48-71-2-35-K/21-сон қарорига
6-илова

Jondor tumani mahalliy byudjetining 2022 yilgi yuqori byudjetdan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so‘mda

SHahar va tumanlar	**Tartibga soluvchi transfert miqdori**
Jondor tumani	102 235 531,0

** mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i va alkogol maxsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘idan tushumlar bo‘yicha o‘tkazib beriladigan daromadlar bilan birgalikda.*

Халқ депутатлари Жондор туман
Кенгашининг
2021 йил 30 декабрдаги
VI-48-71-2-35-K/21-сон қарорига
7-илова

Jondor tumani mahalliy byudjetida 2022 yilda yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘mda

T/r	**Hudud nomi**	**Miqdor**
	Jondor tumani	1 292 000,0